

CHO'LLANISHGA QARSHI MARKAZIY OSIYO

*Yuldoshev Sherali To'raqul o'g'li*

*Toshkent davlat Yuridik Universiteti 3- kurs*

*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi*

*Yoqubov Jasurbek Salimjon og'li*

*Toshkent davlat Yuridik Universiteti 3- kurs*

*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasidagi cho'llar va ularning o'ziga xos geografik xususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Cho'l, erg, zona, mo'tadil, subtropik, qumoq, lyoss, texnogen, voqa, gil, taqir, sho'rxok, harorat, iqlim, qoq, tog', adir, soy.

Cho'llarning asosiy qismi subtropik va tropik kengliklarda hamda mo'tadil mintaqalarda joylashgan. Cho'llarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida, ularning makon va zamonda geografik tarqalishida bir necha omillar yetakchi rol o'ynaydi. Bular: landshaft sferasining zonalligi, issiqlik va namlikning notekis taqsimlanishi, orografik to'siqlar, subtropik kengliklarda yil davomida yuqori atmosfera bosimining hukmronligi, sovuq dengiz oqimlarining materik sohillariga ta'siri va boshqalardir. Subtropik kengliklarda yil davomida baland atmosfera bosimi hukmronlik qilgani sababli past bosimli ekvator tomon harakat qilib, yil bo'yi esib turadigan passat shamollarini vujudga keltiradi. Passatlar Yer sharining aylanishi ta'sirida shimoliy yarim sharda shimoli-sharqdan janubi-g'arbga, janubiy yarim sharda esa janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon buriladi. Passat shamollari faqat troposferaning quyi 1,5-2,5 km qalinlikdagi qatlamini egallab olib atmosferaning vertikal harakatiga, bulutlarning rivojlanishiga va yog'inlarning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham tropik va subtropik kengliklarda bulutli kunlarda ham quyosh radiatsiyasining kelishi juda katta. Natijada yoz oylarida havoning nisbiy namligi o'rtacha 30% gacha pasayib ketadi. Havoning o'rtacha harorati esa 32-35° S gacha, maksimal harorati esa 50° S gacha etadi. Ana shunday tabiiy geografik sharoitda vujudga kelgan cho'llarga Afrikaning Sahroi Kabir, Katta G'arbiy Erg, Katta Sharqiy Erg, Liviya cho'llarini aytish mumkin. Subtropik kengliklarda tog' oralig'i botiqlari ham qurg'oqchil xarakterga ega bo'lib, yillik atmosfera yog'inlari 150-200 mm dan oshmaydi. Bunday joylarga Kalaxari cho'llari, Arabiston yarim orolidagi Suriya, Katta Nefrud va Rub-el-Xali cho'llari, Avstraliyaning Katta Viktoriya, Katta Qum, Simpson, Gipson, Styort cho'llari misol bo'ladi. Mo'tadil mintaqada ham cho'llarning hosil bo'lishi uchun materik ichkarisida qulay sharoit vujudga keladi. Ana shunday ichki

kontinental rayonlarga Yevrosiyoning O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo o'lkalari kiradi. Bu o'lkalar okeanlardan uzoqda joylashganligi, mussonlardan tog' tizmalari bilan to'silganligi, yoz oylarida termik depressiyaning vujudga kelishi, atmosfera yog'inlarini kam bo'lishiga va arid iqlim sharoitining shakllanishiga sabab bo'ladi. Oqibatda yog'in miqdori 100-200 mm dan oshmaydi. Maksimal havo harorati 42-45° S gacha ko'tariladi. Mumkin bo'lgan bug'lanish miqdori yog'in miqdoriga nisbatan 15-20 marta ko'pdir. Ana shunday kontinental iqlim sharoitida O'rta Osiyoda Qizilqum, Qoraqum, Mo'yinqum, Katta va Kichik Bo'rsiq qumlari, Orolbo'yi Qoraqumi, Ustyurt va Betpaqdala cho'llari tarkib topgan. Markaziy Osiyoda esa eng katta maydonlarni Takla-Makon, Gobi, Alashan, Beyshan, Ordos, Saydam, Jung'oriya, Tibet tog' cho'li va boshqalar mavjud. O'zbekiston Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida birinchilar qatorida BMTning Cho'llanishga qarshi kurash konvensiyasiga a'zo bo'lgan. Ushbu Konvensiya 1995 yil 31 avgustda O'zbekiston parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilinib, 1996 yildan kuchga kirgan. Bugungi kunda mazkur Konvensiyaga 196 ta davlat a'zo hisoblanadi. Qurg'oqchilik – ekinlarning hosildorligini yo'qolishi, o'rmon yong'inlari va suv tanqisligi natijasida insonlar hayotining barbod bo'lishi nuqtai nazardan eng daxshatli tabiiy ofatlardan biridir. So'nggi yillarda oziq-ovqat va suv tanqisligi, kuchli qurg'oqchilik tufayli yuzaga kelgan o'rmon yong'inlari kuchaygan. Yerning tanazzulga uchrashi va iqlim o'zgarishi natijasida kuchaygan qurg'oqchilik ayniqsa shiddatli tus olmoqda. Bunday tashvishli holat 2000 yilga nisbatan 29 foiz ko'p va har yili 55 mln. kishiga ta'sir qiladi. Eng achinarlisi, 2050 yilga borib qurg'oqchilik dunyo aholisining to'rt dan uch qismiga ta'sir qilishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi axborot xizmati ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi kunda O'zbekistonning 70 foiz yoki 31,4 mln gektar yeri qurg'oqchil maydonlar bo'lib, ular asosan tabiiy sho'rlangan, ko'chma barxan qumliklar va qumliklardan iborat cho'l hamda issiq garmsel shamollari ta'siridagi hududlardir. Orol dengizi suv sathining qurishi tufayli O'zbekistonda yana qo'shimcha 3 mln gektardan ortiq maydonda Orolqum paydo bo'ldi. Natijada ushbu mintaqada ekologik muhit yomonlashib, cho'llanish jarayonlari yanada kuchaydi va ko'plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi.

2021-yilning cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni nishonlanadigan 17-iyun sanasi degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va sog'lom yer maydonlarini yaratish mavzusiga bag'ishlanadi. Buning natijasida iqtisodiyotning barqarorligi ta'minlanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholining daromadlari oshadi va oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlandi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yerlarni qayta tiklash bioxilma-xillikni saqlashga hissa qo'shadi. Yerning isishiga ta'sir etuvchi atmosfera uglerodining yerda saklanib kolishi tufayli, iqlim o'zgarishi jarayoni sekinlashadi. Shuningdek, bu iqlim o'zgarishi oqibatlarining yumshashiga olib kelishi va COVID-19 pandemiyasi tugagach, "yashil" tiklanishga asos bo'lishi mumkin. O'zbekistonda 2017-

yildan buyon CADI — “Markaziy Osiyodagi cho'llar bo'yicha tashabbus” loyihasi amalga oshirilib kelmoqda. Ushbu loyiha Birlashgan Millatlar oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan amalga oshirilib, Germaniya hukumati tomonidan moliyalashtirilmogda. Tashabbus, global ahamiyatga ega bo'lgan noyob ekotizimli mo'tadil cho'llarni saqlash va ulardan barqaror foydalanishga qaratilgan. Ular qushlar, shuningdek, yovvoyi tuyoqli hayvonlar uchun muhim migratsiya mintaqalaridir, — deya ta'kidlaydi CADI loyihasining O'zbekistondagi Milliy koordinatori Narimon Nishonov. — O'zbekiston bilan bir qatorda, Qozog'iston va Turkmaniston ham CADIning maqsadli mamlakatlaridan hisoblanadi. O'zbekiston hududining yarmidan ko'prog'i cho'llar bilan qoplanganligi, bu eko-tizimlarning mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatini tasdiqlaydi. Bugungi tadbirda keng manfaatdor shaxslar doirasi uchun o'quv kursi o'tkazib, ularni tabiiy resurslarni kompleks boshqarish, shuningdek, er resurslarini barqaror boshqarish bo'yicha eng samarali texnologiyalar bilan tanishtirildi. Markaziy Osiyo davlatlari va AQSh iqlim inqirozini yengish to'g'risida qo'shma bayonot qabul qildi. Unda aytilishicha, iqlim o'zgarishi mintaqada suv mavjudligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, cho'llanish va tuproq degradatsiyasini tezlashtirmogda.

Xalqaro ilmiy jamoatchilikning e'tirof etishicha, cho'llanish dunyoning barcha regionlaridagi mamlakatlar uchun juda ham katta iqtisodiy, sosial va ekologik muammo bo'lib hisoblanadi. Hozirgi davrning eng keskin global muammolaridan biri ekologik tizimga antropogen yukning oshib borishi natijasida deyarli barcha turdagi landshaft majmualarining degradatsiyalashib borishidir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan Xalqaro Konventsiyada cho'llanish jarayoniga shunday ta'rif berilgan: «cho'llanish qurg'oqchil, chala qurg'oqchil va quruq gumidyoni rayonlarda turli xil omillarning, iqlim o'zgarishi va inson faoliyati ta'siri natijasida erlarning degredatsiyalanishidir». (O'zbekiston Respublikasida cho'llanishga qarshi kurashish harakatining Milliy dasturi, 1999, 3-bet). Shuning uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Hukumatlararo qo'mitasi tomonidan cho'llanishga qarshi kurashish va qurg'oqchilikni yumshatish bo'yicha 1994 yil 17 iyunda Parijda Konventsiya qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi ham cho'llanish va qurg'oqchilik oqibatlariga qarshi kurashishning muhimligini e'tiborga olib, 1995 yilda cho'llanishga qarshi kurashish Xalqaro Konventsiyaga qo'shildi. Hozirgi kunda bu Konventsiyaga qo'shilgan mamlakatlarning soni 139 tadan oshdi.

Cho'llanish – bu atrof muhitdagi ekotizimlarning unumdor erlar hosilining kamayishi, degredatsiyalanishi, iqlimning quruqlashishi, cho'l hududlarining kengayishi va xakozolar. O'rta Osiyo hududida cho'llanish jarayonini quyidagicha ta'riflashimiz mumkin: cho'llanish butun insoniyat tarixi davomida kuzatilmogda; ekologik o'zgarishlarni yuzaga keltirishda tabiiy omillar bilan birgalikda antropogen

omillarning o'zni ham muhim bo'lib sanaladi; cho'llanish asta-sekin rivojlanuvchi jarayon bo'lib hisoblanadi va albatta shamol eroziyasi, bir xil bo'lmagan relief shakllariga, ko'chib yuruvchi qumlar harakati, qum tepaliklarining hujumiga bog'liq holatda rivoj topadi. Cho'llanish jarayonini o'z navbatida tarixiy ikkita davrga ajratish mumkin: qadimgi va hozirgi davr. O'rta Osiyo cho'llari cho'llanishining qadimgi davri so'nggi yuz yillikni o'z ichiga oladi. Turli shahar va qishloqlarning ayrim joylarida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ular qadimda cho'l hududlari bo'lib hisoblanmagan. Chunonchi, qadimgi davrning cho'llanish jarayoni sabablari juda murakkab va bir xilda bo'lmasdan uzoq davom etgan. Hozirgi davr cho'llanish jarayoni oxirgi ellik yilni qamrab olib, asosan er resurslaridan oqilona foydalanmaslik, chorva mollari sonining ortishi, cho'llardagi butasimon o'simliklarning o'tin sifatida kesilishi, tog'-kon sanoatining rivojlanishi, qisqasi, tabiiy va antropogen omillar ta'sirida shakllanmoqda. O'zbekiston Respublikasining 70% dan ko'proq hududi cho'l va chala cho'ldan iboratligini inobatga olsak, sug'oriladigan erlarda sho'rlanish, botqoqlanish, shamol va suv eroziyasi, yaylovlarda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi, ayniqsa, Qizilqum cho'lidagi Qoraxotin, Oyoqog'itma, Mullali, Mingbuloq botiqlarida cho'llanishning oqibatlarini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Natijada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning mahsuldorligi borgan sari pasayib, oziq-ovqat, em-xashak va sanoat xom-ashyolarini etarli miqdorda etishtirib berish sekinlashmoqda va etishtirilgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari ham pasayib bormoqda. Vujudga kelgan ekologik vaziyatning yomonlashishi natijasida cho'llashgan erlardan aholining shaharga ko'chishi ko'paymoqda. Bunga misol tariqasida Mo'ynoq rayoni aholisining o'tgan asrimizning 70-80 yillarida ikki baravar kamayishi (45 ming kishidan 22 ming kishiga) yaqqol misol bo'ladi.

Qozog'iston Respublikasi hukumati cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha Milliy harakatlar rejasini qabul qildi. Yanvar oyida Qozog'iston Respublikasi hukumati tomonidan Qozog'iston Respublikasida 2015 yillarga mo'ljallangan cho'llanishga qarshi kurash dasturi tasdiqlandi. Hukumatning tarmoq dasturlari sonini optimallashtirish munosabati bilan ushbu dastur bekor qilindi va 2010-2014 yillarga mo'ljallangan "Yashil rivojlanish" dasturida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat o'rta muddatli dasturiga ushbu dasturning faqat ayrim tadbirlari kiritildi. . Qozog'iston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiyasi cho'llanish muammosining jiddiyligini tasdiqlaydi va "yashil" qishloq xo'jaligi tamoyillariga amal qilishni taklif qiladi, masalan: a) yerlarning degradatsiyasining oldini olish va degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash. yerlar; b) o'tlarning ortiqcha boqishining oldini olish; v) suvdan samarali foydalanish; d) resurslardan oqilona foydalanish; e) chiqindilarni minimallashtirish va qayta foydalanish; e) karbonat angidridni ushlash. GEF – BMTTDning "Milliy harakatlar rejasini yangilashda, shuningdek, Qozog'istonda cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi BMT

konventsiasini amalga oshirish doirasidagi faoliyat natijalarini hisobot va tahlil qilish jarayonida qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasida “Strategik Qozog‘iston Respublikasida 2025 yilgacha cho‘llanishga qarshi kurashish chora-tadbirlari”.

Hukumat tomonidan 2000-yilda cho‘llanishga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy harakatlar dasturi va 2006-2016-yillarda yerlarni barqaror boshqarish bo‘yicha milliy asos dasturi qabul qilindi. Bu dasturlar yerdan barqaror foydalanishni rivojlantirish, ekin maydonlarining unumdorligini oshirish va qishloq joylarda qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan. 2000-2007 yillarda barqaror yer boshqaruvi va ilg‘or qishloq xo‘jaligi amaliyoti bo‘yicha ko‘plab tajriba loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilganiga qaramay, yerlarning degradatsiyasi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining qisqarishi va qishloqlarda qashshoqlikning kuchayishi tufayli kichik o‘zgarishlar sekinlashmoqda. Qirg‘iziston yuqoridagi dasturlarni to‘liq amalga oshirish uchun o‘z faoliyatini kuchaytirishi kerak. 2017-yil iyul oyida BMTTD-GEFning “Atrof-muhitga oid axborotni boshqarish va monitoring qilish milliy tizimini takomillashtirishni ta‘minlash uchun institutsional va huquqiy salohiyatni mustahkamlash” loyihasi ko‘magida BMT qarorlarini amalga oshirish bo‘yicha idoralararo ekspert guruhining beshinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Qirg‘izistonda cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha konvensiya bo‘lib o‘tdi. Ekspertlar guruhi ishtirokchilari yerlarning degradatsiyasi neytralligi bo‘yicha maqsadlarni belgilash tashabbusini joriy etish va amalga oshirishda ilg‘or harakatlar qilinmoqda.

Atrof-muhit degradatsiyasiga va yerdan beqaror foydalanishga qarshi kurashishga qaratilgan cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha Milliy harakatlar dasturi. Konvensiyani amalga oshirish uchun Hukumat tomonidan Agrosanoat majmuini iqtisodiy o‘zgartirish dasturi hamda 2010 yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan ekologik ta‘lim va aholini tarbiyalash dasturi qabul qilindi. Tojikistonda xususiy sektorni rivojlantirish strategiyasi loyihasida ekologik barqaror o‘shishni ta‘minlash va yerdan barqaror foydalanishni rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Tojikiston Markaziy Osiyodagi cho‘llanish oqibatlariga iqtisodiy jihatdan eng zaif davlatlardan biri hisoblanadi, chunki cho‘llanishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari atrof-muhit qochqiniga aylanishi mumkin bo‘lgan aholi uchun katta qayg‘uga tahdid soladi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz eroziya va cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha aniq tajriba loyihalarini ishlab chiqish zarurligini e‘tirof etadi.

Turkmanistonda cho‘llar hududning 80 foizini egallaydi va ekin va tabiiy erlar turli darajada cho‘llanishga uchraydi. Cho‘l va tog‘ oldi yaylovlari, sug‘oriladigan yerlarning degradatsiyasi muammosiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatda Turkmaniston Atrof-muhitni muhofaza qilish va yer resurslari davlat qo‘mitasining Cho‘l, o‘simlik va hayvonot dunyosi milliy instituti (NIPRZhM) faoliyat yuritadi. Milliy o‘rmon dasturi, Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Milliy strategiya hayotga tatbiq etilmoqda, Yaylovlar to‘g‘risidagi qonun joriy etildi, Suv kodeksi qayta ko‘rib chiqildi,



Yer kodeksiga o'zgartishlar kiritildi, Iqlim o'zgarishi bo'yicha Milliy dastur qabul qilindi, Milliy harakat dasturi qabul qilindi. Cho'llanishga qarshi kurash dasturi qayta ko'rib chiqildi. Yer resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish davlatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u 2030-yilga qadar strategiyada o'z ifodasini topgan.

Cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha milliy strategiya. Ayni paytda ikkinchi Milliy strategiya loyihasi tayyorlandi. Ushbu dastur, shuningdek, Barqaror rivojlanish milliy strategiyasi cho'llanishga qarshi kurashning asosiy strategiyasi hisoblanadi. Keyingi yillarda Orolbo'yi bo'yicha ikkita davlat dasturi qabul qilindi. Cho'llanishga qarshi kurashish, suv resurslarini boshqarish dasturlari, shuningdek, o'rmon resurslarini boshqarish dasturi mavjud. O'zbekistonda qarshi kurash meliorativ holatni yaxshilash dasturi doirasida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar orqali, ekologiya va iste'mol maqsadida yerdan muvozanatli foydalanish bo'yicha tajriba va ilg'or tajribalarni qo'llash, yangi innovatsion resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. yerdan foydalanish tizimiga; barqaror oziq-ovqat tizimlarini ta'minlash, rivojlantirish, yaratish va qo'llab-quvvatlash uchun barqaror yer boshqaruvi amaliyotiga investitsiyalarni jalb qilish.

Respublikada cho'llanishning oldini olish, o'rmonlarni qayta tiklash va ihota o'rmonlarini ko'paytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda respublika hududining 70 foizi yoki 31,4 mln ga tabiiy sho'rlanishga, qum ko'chkilari, changli bo'ronlar va garmsellar tarqalishi ta'siriga uchragan qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil maydonlardan iborat. Orol fojiasi oqibatida 5,5 mln gektardan ortiq maydonli Orolqum cho'li vujudga kelgan.

Yerlar cho'llanishining oldini olish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish sohasida amaldagi davlat boshqaruvi tizimi ushbu yo'nalishdagi ishlarni samarali muvofiqlashtirishni ta'minlash imkonini berilmayapti. Cho'llanishga qarshi kurashish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash bo'yicha ishlarni olib borish samaradorligini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishni ta'minlanyapti.

Xulosa qilib aytganda, yer yuzida global miqyosda iqlim o'zgarishi, cho'llanish jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi zamonda, ayniqsa, bizning kam o'rmonli mintaqamizda, asosan qumli cho'l hududlarida o'rmonzorlar maydonlarini kengaytirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish juda ulkan ahamiyatga ega. Bu muhim omil, shuningdek, cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, mahalliy aholining cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha xabardorligini oshirish, yerlardan barqaror foydalanishni hamda amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqib, amaliyotda qo'llashni tashkil etishni ham taqozo etadi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее Государство Узбекистан. Ташкент. Узбекистан, 2018.
2. Указ Президента Республики Узбекистан в стратегии действий по дальнейшему развитию республики Узбекистан. Ташкент. Адолат, 2017. Экологический Вестник, 2008. № 5-6. С. 29-30.
3. Парламентские слушания «О состояниях реализации программы действий по охране окружающей среды Республики Узбекистан». Ташкент, 2018. С. 14.
4. Хайитов Ёзил Косимович, Нурбек Ахмадович Тошбеков, Хамдамова Диловар Нуруллаевна. Гидрологические основы использования дренажных сетей (по премуре бухарской области). Monografia rokonferencyjna science. Research, development 26, 2020-28.02
5. Национальный доклад. О состоянии окружающей при родной среды и использовании природных ресурсов в Республики Узбекистан(2008-201 I год). - Т.; "Chinor ENK" , 2013.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)